O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMI
QARORI

2023 - yil 24 - mart 63-10-212-Q/23 Toshkent tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2022-yil 6-dekabrdagi 629-10-0-Q/22-sonli qarori ijrosi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-noyabrdagi “Qurilish loyihalarini amalga oshirishda nazorat mexanizmlarini takomillashtirish, jarayonning ochiqligi va shaffofligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 425-sonli qarori ijrosi yzasidan **Toshkent viloyati hokimining 2022-yil 6-dekabrdagi 629-10-0-Q/22-sonli qarori ijrosi**ni ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g’risida”gi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Toshkent viloyati hokimining 2022-yil 6-dekabrdagi 629-10-0-Q/22-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-noyabrdagi 425-sonli qarori bilan quyidagilar:

2023-yil 1-yanvardan boshlab O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturiga va Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladigan dasturlarga (keyingi o‘rinlarda — Dasturlar) kiritilgan loyihalar, shuningdek, tashabbusli budjetlashtirish jarayonlari asosida moliyalashtiriladigan qurilish-ta’mirlash ishlari bo‘yicha loyihalar (keyingi o‘rinlarda — Loyihalar) doirasida;

obyektlarning bosh loyiha-qidiruv va bosh qurilish-pudrat tashkilotlari Qurilish vazirligining “Shaffof qurilish” milliy axborot tizimida inson omilisiz

o‘tkaziladigan elektron tender (tanlov) savdolari orqali aniqlanishi;

“Shaffof qurilish” milliy axborot tizimida o‘tkazilgan tender (tanlov) savdolari yakuni, shuningdek, qonunchilik hujjatlariga muvofiq to‘g‘ridan to‘g‘ri muzokaralar bo‘yicha buyurtmachi bilan loyiha-qidiruv va qurilish-pudrat tashkilotlari o‘rtasidagi loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish va pudrat ishlarini bajarish to‘g‘risidagi shartnomalar mazkur tizimda elektron raqamli imzo orqali tuzilishi hamda ro‘yxatdan o‘tkazish yoki hisobga olish uchun Moliya vazirligining Davlat moliyasini boshqarish axborot tizimiga elektron shaklda yuborilishi;

tasdiqlangan manzilli ro‘yxatlarga kiritilgan har bir obyekt identifikatsiya raqami berilgan holda, “Shaffof qurilish” milliy axborot tizimiga kiritilsin hamda ular bo‘yicha har qanday o‘zgartirish yoki qo‘shimchalar mazkur axborot tizimida aks ettirilishi;

xavf-xatar toifasidan qat’i nazar, barcha obyektlar qurilish-montaj ishlarini boshlash uchun vakolatli organda ro‘yxatdan o‘tkazilishi va nazoratga olinishi ta’minlanishi;

mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha hokim yordamchisi, mahalla faollari va yoshlar yetakchilari, ommaviy axborot vositalari va boshqa jamoat tashkilotlari tegishli hududda dasturlar va loyihalar doirasida amalga oshirilayotgan ishlarning holati, sifati hamda ko‘lami ustidan jamoatchilik nazoratini o‘rnatilishi, unda aniqlangan kamchiliklar haqida Davlat dasturlarini ijro etilishi nazorat qilinishi va muvofiqlashtirish bo‘yicha tuman (shahar) shtablariga ma’lumot taqdim etilishi;

“Shaffof qurilish” milliy axborot tizimida obyektlar bo‘yicha aniqlangan bosh pudrat tashkiloti tomonidan ishlar bajarilganligini (tovarlar yetkazib berilganligini) tasdiqlovchi dalolatnoma uning mazkur tizimdagi shaxsiy kabinetida elektron tarzda shakllantirilib, buyurtmachi tashkilot bilan elektron tarzda kelishilishi, bunda, buyurtmachi tomonidan hisobvaraq-fakturalar Davlat moliyasini boshqarish axborot tizimiga moliyalashtirish uchun elektron shaklda yuborilishi;

“Shaffof qurilish” milliy axborot tizimidagi loyiha-qidiruv va qurilish-pudrat tashkilotlarining reytingida mavjud bo‘lgan korxonalar, ularning reytingini hisoblash mezonlari kesimidagi ballari, dasturlar hamda loyihalardagi har bir obyektning shaharsozlik hujjatlari, obyektda bajarilgan ish hajmlari va

moliyalashtirilgan mablag‘lar haqidagi ma’lumotlar tizimda real vaqt rejimida jamoatchilik uchun ochiq e’lon qilinishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman prokuraturasi:

a) Dasturlar va Loyihalar doirasida quyidagi yo‘nalishlarda

Dasturlarning manzilli ro‘yxatini shakllantirish, obyektlarni moliyalashtirish va qurilishta’mirlash ishlarini olib borish tadbirlarini O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10- dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi hamda boshqa davlat dasturlari ijrosi ustidan nazoratni kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 43-sonli qarori bilan belgilangan talablar asosida amalga oshirishni;

har bir obyekt bo‘yicha yer maydoni ajratish, loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish va ekspertiza qilish, tender (tanlov) savdolarini o‘tkazish va moliyalashtirish tadbirlarini qonunchilik hujjatlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini;

obyektda qurilish-ta’mirlash ishlarini amalga oshirishda arxitektura, shaharsozlik va boshqa qonunchilik hujjatlariga qat’iy rioya etilishini ta’minlanishi;

loyiha-smeta hujjatlarida ortiqcha ish hajmlari ko‘rsatilishi va mahsulotlar narxlari asossiz oshirilgan holda kiritilishining oldini olish choralarini ko‘rishni;

qurilishi tugallangan obyektlarni foydalanishga topshirish va qabul qilish talablariga rioya etilishini ta’minlash, ushbu jarayonda ortiqcha byurokratiyaga yo‘l qo‘yilmaslik choralarini ko‘rish;

jismoniy va yuridik shaxslarning Dastur va Loyihalar doirasidagi qurilishlar bilan bog‘liq murojaatlarini o‘rganish, ularning buzilgan huquqlarini tiklash, qonun buzilishiga yo‘l qo‘ygan shaxslarga nisbatan qonun ustuvorligi va jazo muqarrarligini ta’minlash bo‘yicha nazoratni kuchaytirsin hamda har chorakda hududiy prokurorlar va ularga tenglashtirilgan prokurorlar tomonidan qurilish sohasida korrupsiya va qonun buzilishi holatlarining oldini olish yuzasidan ko‘rilayotgan chora-tadbirlar haqida keng jamoatchilikka axborot berib borilishini ta’minlasin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-noyabrdagi 425-sonli qarori bilan:

tashabbusli budjetlashtirish jarayonlari doirasida amalga oshiriladigan qurilish-ta’mirlash ishlari bo‘yicha buyurtmachilar etib:

ichki avtomobil yo‘llari bo‘yicha — Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi tizimidagi buyurtmachi tashkilotlar;

ichimlik suv ta’minoti va oqova suv tizimi obyektlari bo‘yicha — “Suv ta’minoti va oqova suv obyektlari qurilishi bo‘yicha injiniring kompaniyasi” unitar korxonasi;

elektr energiyasi va gaz ta’minoti obyektlari hamda aloqa tarmoqlari bo‘yicha — tegishincha “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ, “Hududgazta’minot” AJ va “O‘zbektelekom” AK;

ijtimoiy soha obyektlari, mahalla fuqarolar yig‘inlari idoralari, obodonlashtirish, tungi yoritish uskunalarini o‘rnatish ishlari va boshqa obyektlar bo‘yicha “Yagona buyurtmachi xizmati” injiniring kompanisi ushbu obyektlarni saqlash bilan bog‘liq ta’mirlash ishlari bo‘yicha — tegishli tarmoq korxonalari belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

5. Tuman moliya bo‘limi (B.Abduraxmonov) Dasturlar va Loyihalar asosida moliyalashtiriladigan obyektlarga ajratilgan mablag‘larning o‘rnatilgan tartibda va muddatlarida moliylashtirilishibi taminlasin.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinborasi S.Mirsagatov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **O.Rustamov**